



RAQAMI: 8768759

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

REPETITSION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

1-30 topshiriqlar *Ona tili va adabiyoti*
31-60 topshiriqlar *Biologiya*
61-90 topshiriqlar *Kimyo*

Test topshiriqlarini bajarish uchun (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga)
belgilangan vaqt **3 soat**.

ABITURIYENT DIQQATIGA!

- Ushbu kitob va javoblar varaqasi raqamlari **mosligini tekshiring**.
- Har bir fan bo'yicha 30 tadan test topshiriqlari **mavjudligini tekshiring**.
- Nuqsonlar aniqlanganda, **darhol** guruh nazoratchisiga **ma'lum qiling**.
- Kitob muqovasiga o'zingiz haqingizdagi **ma'lumotlarni yozing va imzo qo'ying**.
- Ushbu kitob guruh nazoratchisiga **topshirilishi shart**.

Familiyangiz: _____

Ismingiz: _____

Otangizning ismi: _____

..... Imzo

Yuqoridagi ma'lumotlar qayd etilmagan yoki kitobga shikast yetkazilgan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

ONA TILI VA ADABIYOTI

- 1.** *tinchlik so'zining yetakchi morfemasi* undoshlar qaysi xususiyatlariga ko'ra o'zaro bir xil tasnif qilinadi?
- hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
 - hosil bo'lish usuliga ko'ra;
 - sonor yoki shovqinliligiga ko'ra;
 - jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra
- A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 4
- 2.** Qaysi gap tarkibida imloviy xatoga yo'l qo'yilgan so'z uchraydi?
- Har doim onam tayyorlagan shirin-shirin taomlarni tanavvul qilish xush yoqadi.*
 - Bugungi ko'rrikda qatnashish uchun litsey tomonidan uchta o'quvchi tavsiya etilgan.*
 - Sarvar juda qo'rqiб ketganidan voqeaneing butun tafsilotini unga birma-bir gapirib berdi.*
 - Universitet faoliyati to'g'risidagi tashviqot ishlarini olib borishda faol qatnashdik.*
- 3.** Qaysi gapda aniqlovchi vazifasidagi so'z imlosida imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?
- O'z ishiga ma'suliyatsizlik uni hamma narsasidan ayirdi.*
 - Fabrikamizga shohi to'qish dasgohi o'rnatildi.*
 - Muvaqqiyatlarmiz siri haqida yig'ilganlar bilan o'rtoqlashdik.*
 - Jamiyat mulkiga daxlsizlik tuyg'usi har bir fuqaroda shakllangan bo'lishi kerak.*
- 4.** Qaysi javobda paronimi mavjud bo'lган ot berilgan?
- A) xam B) adil C) podshoh D) shoh
- 5.** Qaysi gapda ot turkumiga oid so'zlar bilan omonim bo'la oladigan ot qatnashgan?
- Shu shirkatga tegishli daladagi paxtani teringlar.*
 - Bir yil tut ekkan kishi qirq yil mevasini teradi.*
 - Bu yilgi bahorning kechikishi daladagi yumushlarni ham kechiktirdi.*
 - Ular dushmani lashkarlariga qaratib to'p ota boshladilar.*
- 6.** Qaysi javobda ot va sifat yasovchi sifatida o'zaro shakldoshlik hosil qila oladigan qo'shimchalar qatori berilgan?
- in, -ik, -k, -ki B) -kash, -gar, -zor, be-
 - qich, -dor, ser-, -don D) -kor, -chi, -zor, no-
- 7.** Qaysi gapda qatnashgan barcha yasama so'zlarda so'z yasovchi qo'shimcha ta'sirida fonetik hodisa sodir bo'lgan?
- Xonada yuzlari sarg'ayib ketgan bemor yigit yotar, u titroq lablarini ochishga ham qiyalar edi.*
 - Insonlar bu kabi illatlarni kech anglaydilar, ko'pincha o'zini haq sanab, o'zgalarni haqsiz deb o'ylaydilar.*
 - Ayrılıq g'uussasi o'limdan yomon, Qolmayin zarracha armon o'ynasin.*
 - Tepadan shovullab tushayotgan suv o'ynoqi harakatlar bilan toshdan toshga urilardi, qaytadan yashargan sayhonlikda bahoriy iliqlik bor edi.*
- 8.** *Ko'rinnmas haqiqat kezib yuribdi,*
Ne ish bo'lsa, barin sezib turibdi.
Mard va sof odamning galbiga kirib,
Nomard va yo'rvoqdan bezib yuribdi.
She'riy parchada nechta sifat to'ldiruvchi vazifasini bajargan?
- A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

- 9.** Ravishning ma'nosiga ko'ra faqat bir turi qatnashgan gapni aniqlang.
- Ular qishloqdan anche uzoqlashgandan keyin, otlariga minib yo'rtib ketdilar.*
 - Men ham bunga arang ko'nikdim, sen esa hali ko'nikmayapsan.*
 - Keyin u tez-tez yurib bog' tomonga burilib ketdi.*
 - Dastlabki kunlar sezilmadi, sal og'riq berayotganini bugun bilib qoldim.*
- 10.** Qaysi gapda majhul nisbatdagagi fe'l bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan?
- Bu mavzu oldin ham ishlangan, lekin ommaga e'lon qilinmagani uchun jamoatchilik bexabar qolgan.*
 - Qoqilgan odam yerda yotgan toshdan o'pkalamaydi.*
 - Egilgan boshni qilich kesmas.*
 - Binoning o'rtasiga o'rnatilgan ustunni naqshlar bilan bezatishgan edi.*
- 11.** *Shovulladi tun bo'yi shamol,
Qaldirqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".*
She'riy parchada ishtirot etgan fe'llar haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.
- Ushbu fe'llarning barchasi III shaxsdagi fe'llar hisoblanadi.*
 - Ushbu fe'llarning barchasi o'timli fe'llar hisoblanadi.*
 - Ushbu fe'llarning barchasi sodda fe'llar hisoblanadi.*
 - Ushbu fe'llar xabar va buyruq-istak maylidagi fe'llar hisoblanadi.*
- 12.** Qaysi gapda qatnashgan barcha ko'makchilar yasama so'z bilan ifodalangan gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qilgan?
- U xuddi usta zargarlar kabi uzukni boshdan oyoq aylantirib qaradi, ammo hech narsani sezmagani uchun uni Naziraga qaytarib berdi.*
 - "Tinchlik tufayli ellar obod, xonodonlar tinch, - dedi otaxon xotirjamlik bilan, - tinchlik farovonlik tomon eltuvchi yo'ldir".*
 - Goho miriqib dam olish uchun ham vaqt ajratish kerak-da", - dedi u beg'uborlik bilan tog' tomonga qarab.*
 - U do'stidan xavotirlangani uchun o'rmon tomon yurdii-yu, biroz qo'rvoqligi tufayli u yerga kirishga ikkilandi.*
- 13.** *Uning xayollarini har kungi mudhish tuyg'ularga o'xshamagan hislar chulg'adi.*
Ushbu gapdagagi bitishuv munosabatli so'z birikmalari sonini aniqlang.
- A) 2ta B) 4ta C) 5ta D) 3ta
- 14.** *Yurtimizda chiroyli va osmono'par binolar qurilmoqda.*
Ushbu gapdagagi grammatik bog'lanishlar sonini aniqlang.
- A) 3 B) 5 C) 6 D) 4
- 15.** *To'rt tarafda g'anim lashkari,
Ming yaradan qon oqur tanda.
Do'st, sen eding ko'nglim rahbari,
Meni bog'la, topshir dashmanga.*
Ushbu she'riy parchada ishtirot etgan kesimlar haqidagi to'g'ri fikrni toping.
- 3 o'rinda fe'l kesim buyruq-istak maylidagi fe'l bilan ifodalangan.*
 - Fe'l kesimlardan biri tarkibida badiiy va publisistik uslubga xos kelasi zamon shakli qo'llangan.*
 - 3 o'rinda bog'lamali ot kesim ishtirot etgan.*
 - 3ta ot kesim tarkibida egalik qo'shimchasi mayjud.*

- 16.** Qaratqich aniqlovchi hamda sifatlovchi aniqlovchi uyushib kelgan gapni toping.
- A) *Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli hurmat topgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi.*
- B) *Ona-Vatanga muhabbat, xalq va millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib, yonib kuyladilar.*
- C) *Yurtni himoya qila oladigan mard va jasur o'g'lonlarga, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlodlarga olqishlar bo'lsin.*
- D) *Kun sayin yangi yo'llar, muhtasham va zamonaviy inshootlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbigaiftixor baxsh etmoqda.*
- 17.** Qaysi gapdagi yuklama-bog'lovchini ziddov bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin.
- A) *Bashorat bilan Tursunboy yugurib keldilar-u, Kamolxon Azizovich hali uyda yo'q edi.*
- B) *Yer yuzini sug'orib turgan bahor bulutlari orasidan go'yo quyosh chiqdi-yu, ko'nglimizda shodlik chechaklari ochildi.*
- C) *Jamoa xo'jaligi bamisoli bir xonardon-u, Jo'raxon uning onaxoni bo'ldi-ko'ydi.*
- D) *Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga ochdi.*
- 18.** Egalari shakldosh so'zlar bilan ifodalangan ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- A) *Qizlarning bo'yi baravar, yuzlari ham o'xshashib ketar edi.*
- B) *Ko'pirar tomirlarda qon va portlar hademay o'tli bu vulqon.*
- C) *Bugun ertalab qor yog'di-yu, tushdan keyin havo ochilib ketdi.*
- D) *Tuman quyuqlasha boshladi, shuning uchun ot yurolmay qoldi.*
- 19.** Qaysi javobda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
- A) *Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam, Labing yaprog'idin tomganki, go'yo qatra bol bo'lsam.*
- B) *Azm daryolar ham kamar bo'lolmas, Qo'shilib chulg'ansa sening belingga.*
- C) *Olti oykim, sher yozmayman, yuragim zada, Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad...*
- D) *Qiz hali yosh bo'lsa-da, bo'ychan edi, bichimi ingichka va sambitgul novdasidek adl edi.*
- 20.** Qaysi javobdagi gapda tinish belgisini qo'llash bilan bog'liq xatolik kuzatiladi?
- A) *O'zimcha hayronman: bu kishilar nega taraddudlanib o'tiribdi?*
- B) *Yuguraman – ortga ketar qadamlar, Yig'layman – ko'zimga kelmaydi namlar.*
- C) *Bizning oliy maqsadimiz shu – o'z kelajagimizni va baxtimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz.*
- D) *Bu gaplar uning g'ashiga tegmadi, balki quvontirdi.*
- 21.** U o'z so'zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi. U o'z suratini chizdirib ... ning yurtiga yuborar ekan, "agar shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqasiga tegmasin", deb niyat qiladi. Ushbu parchada xalq dostonlaridagi qaysi qahramon haqida fikr yuritilan?
- A) *Xolbeka* B) *Barchinoy* C) *Zulkumor* D) *Oftobxon*
- 22.** Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun" asaridan olingan baytni toping.
- A) *Bu daftarkim, bo'lubtur Misr qandi, Yeti yuz elli to'rt ichra tugandi.*
- B) *Emas afsona chin ushbu bitilmish, Bu chin afsonatek ishqda yetilmish.*
- C) *Qiloyin ikki bobin forsi ham, Kim atlas to'n yarashur bo'lsa mu'lam.*
- D) *Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu fasonani rivoyat.*
- 23.** Ishq unga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi. Buning natijasi o'laroq ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur'onni karimni yod oldi. Shoир aytganidek:
- "Jahonda qolmadи ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm".
Ushbu ma'lumotlar Navoiy "Xamsa"sidagi qaysi doston qahramoni haqida?
- A) *"Layli va Majnun"* B) *"Farhod va Shirin"*
C) *"Sab'ayi sayyor"* D) *"Saddi Iskandariy"*
- 24.** "... it ham tunda ayturmish: Ollo taologa shukurkim, mani gozi qilmay, it qilibturur". Ushbu parcha quyidagi qaysi asardan keltirilgan?
- A) *"Zarbulmasal"* B) *"Miftoh ul-adl"*
C) *"Guliston bit-turkiy"* D) *"Hibat ul-haqoyiq"*
- 25.** Quyidagi qaysi javobda Ogahiy hayotiga oid ma'lumot keltirilgan?
- A) *Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo'lib ishlaydi. U ilmi nujum, tabobat bilan ham shug'ullangan.*
- B) *Amir Umarxon saroyida sipohilik qilgani (askar bo'lgani) haqidagi ma'lumotlar bor. Shunga qaramay u anche kambag'allikda, nochor yashagan.*
- C) *U o'zbek adiblari orasida birinchilardan bo'lib Rossianing ikki yirik shaharlari Peterburg va Moskvada bo'lib kelgan.*
- D) *Miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit chog'idanoq to'shakka mixlanib qoladi.*
- 26.** Ikki echkining yo'l talashib sunva g'arq bo'lganligi haqidagi "Janjalchilikning zarari" hikoyasi qaysi manbada keltirilgan?
- A) *"Zarbulmasal"* (Gulxaniy)
B) *"Miftoh ul-adl"* (Xoja)
C) *"Ikkinci muallim"* (Abdulla Avloniy)
D) *"Rohati dil"* (Xo'janazar Huvaydo)
- 27.** "Odam deb o'lgan odam – doim tirik bo'ladi", "O'zini deb yashagan – o'lik", "Hayot berahm... Qo'rroqqa ayniqsa berahm" kabi hikmatli fikrlar qaysi asarda keltiriladi?
- A) *"Ufq"* B) *"Chinor"* C) *"To'qqizinchi palata"*
D) *"Bahor qaytmaydi"*
- 28.** *El uchun jon tikkan shoир, El dashmani ataldi.*
"Hindu bilan muslim aro Qutqu solgan – shul odam!" deya nohaq ayblangan, millatlar o'rtasidagi urush umrini xazon qilgan shoirning ayanchli qismatini bayon qiluvchi ushbu misralar qaysi adib ijodiga mansub?
- A) *Maqsud Shayxzoda ("Toshkentnoma")*
B) *Saida Zunnunova ("Ruh bilan suhbat")*
C) *Mirtemir ("Surat")*
D) *Erkin Vohidov ("Ruhlar isyonii")*

29. "Valiytarosh" (valiylar yetishtiruvchi), "Abuljannob" (parhez qiluvchi) kabi nom va laqablari bo'lgan ilohiy iste'dod sohibining nomi berilgan javobni aniqlang.

- A) *Najmiddin Kubro* B) *Ahmad Yassaviy*
C) *Sa'diy She'roziy* D) *Jaloliddin Rumiy*

30. Tajnis san'ati qo'llanmagan baytni aniqlang.

- A) *Yutubon bu zamonda qon shuaro, Nazin etar gavhari fig'on shuaro.*
B) *Oshar yeldin seni yelganda oting, Quyosh yanglig' jahonni tutti oting.*
C) *Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen, Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.*
D) *Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kebi vatan qilg'il.*

BIOLOGIYA

31. Oziqlanish turiga ko'ra oltingugurt bakteriyalari qanday guruhga mansub?

- A) *xemotroflar* B) *parazitlar* C) *saprofitlar*
D) *simbiontlar*

32. Lizosoma uchun mos kelmaydigan xususiyatlarni aniqlang.
1) dissimilyatsiyada ishtirok etadi; 2) ikki qavat membranaga ega; 3) monosaxaridlardan polisaxaridlar hosil qilishda ishtirok etadi; 4) oqsillardan aminokislotalar hosil bo'lishiда qatnashadi; 5) RNK dan nukleotidlar hosil qiladi; 6) Golgi apparatidan shakllanadi

- A) 1, 4 B) 3, 5 C) 4, 6 D) 2, 3

33. Monomeri aminokislotalardan tashkil topgan tuzilmalarni aniqlang.

- 1) ligaza; 2) tripsin; 3) glikogen; 4) testosteron; 5) Bam HI; 6) t-RNK; 7) transpozon; 8) Eco RI; 9) RSS 101;

10) pBR 322

- A) 1, 3, 6 B) 7, 9, 10 C) 4, 7, 9 D) 2, 5, 8

34. Meyoz bosqichlari uchun mos holatlarni belgilang.

- 1) profaza II; 2) anafaza I; 3) telofaza II;
a) diploid to'plamdag'i xromosomalarda ikkitadan DNK bo'ladi; b) haploid to'plamdag'i xromosomalarda ikkitadan DNK bo'ladi; c) haploid to'plamdag'i xromosomalarda bittadan DNK bo'ladi; d) diploid to'plamdag'i xromosomalarda bittadan DNK bo'ladi

- A) 1-a; 2-c; 3-d B) 1-a; 2-b; 3-d C) 1-b; 2-a; 3-c
D) 1-c; 2-a; 3-b

35. Qalampir mikrosporasida hosil bo'lgan generativ hujayra bo'linishida mutatsiya sodir bo'lib, mitoz bo'linishining anafaza davrida ikkita nogomologik xromosomalarning mustaqil xromatidalari har xil qutbga tarqalmay, bir qutbga o'tsa, hosil bo'lgan spermiylar bilan urug'langan normal tuxum hujayrada xromosomalalar soni nechta bo'ladi?

- A) 46 yoki 74 B) 50 yoki 46 C) 46 yoki 48
D) 70 yoki 72

36. Dominant (a) va retsessiv (b) belgilarni ajrating.

- 1) drozofila ko'zining qizil rangi; 2) gemofiliya kasalligi;
3) drozofila tanasining kulrang bo'lishi; 4) xo'roz bo'yinida patning bo'lishi; 5) no'xat donining burishgan shakli;
6) odamda pakanalik holati

- A) a - 1, 3, 6; b - 2, 4, 5 B) a - 1, 4, 5; b - 2, 3, 6
C) a - 2, 3, 5; b - 1, 4, 6 D) a - 2, 4, 6; b - 1, 3, 5

37. Modifikator (I) va letal (II) genga ega organizmlarni to'g'ri juftlangan javobni belgilang.

- 1) qorainollarda oq va qora yungning turli miqdorda irlisylanishi; 2) jingalak patli tovuqlarning o'limi; 3) quyosh nuri ta'sirida pigment hosil bo'lishi

- A) I-2; II-1 B) I-3; II-1 C) I-1; II-2 D) I-2; II-3

38. Quyidagi o'simlik navlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) g'o'za; 2) uzum; 3) kartoshka; 4) shaftoli
A) 1-*"Samarqand"-3*; 2-*"Toyipi"*; 3-*"Nimrang"*; 4-*"Qozidastor"*
B) 1-*"Namangan-34"*; 2-*"Sohibi"*; 3-*"Samarqand"*; 4-*"Farhod"*
C) 1-*"Ulug'bek-600"*; 2-*"Gultish"*; 3-*"Nimrang"*; 4-*"Lola"*
D) 1-*"Buxoro-102"*; 2-*"Sanzor"*; 3-*"Obidov"*; 4-*"Zarafshon"*

39. Quyidagicha tuzilishga ega to'pgullar qaysi o'simliklarga xos?

- 1) gulpoyaning uchi etdor likopchasimon kengaygan;
2) asosiy gulpoyaning uchiga oddiy soyabonchalar birikadi;
3) asosiy gulpojadagi oddiy boshoqchalar yig'indisidan iborat

- A) 1 - kakra; 2 - shashir; 3 - sachratqi
B) 1 - petrushka; 2 - qoqio't; 3 - arpa
C) 1 - kungaboqar; 2 - shivist; 3 - bug'doy
D) 1 - javdar; 2 - bodiyon; 3 - qora jusan

40. Porfira (a), yapon laminariysi (b), ulva (c) qaysi suvo'tlar bo'limiga mansub?

- 1) qo'ng'ir; 2) qizil; 3) yashil
A) a - 1; b - 3; c - 2 B) a - 3, b - 2, c - 1
C) a - 2; b - 1; c - 3 D) a - 1; b - 2; c - 3

41. Yo'sinlarning sporofiti uchun mos keladigan to'g'ri javobni aniqlang.

- A) *poya-bargli o'simlik, spora hosil qiladi*
B) *jinssiz bo'g'in hisoblanadi, zigotadan rivojlanadi*
C) *sporangiyband va sporangiyan iborat, zigota hosil qiladi*
D) *sporadan rivojlanadi, mustaqil oziqlanadi*

42. Suttikandoshchalar oilachafiga mansub o'simliklarni belgilang.

- A) *qoqio't, maxsar, andiz*
B) *sachratqi, karrak, kakra*
C) *bo'yimodaron, andiz, ermon*
D) *andiz, bo'znoch, tirnoqgul*

43. Maymunjonga xos ma'lumotlarni belgilang.

- 1) magnoliyatoifa bo'liniga mansub; 2) tikani bargning o'zgarishidan hosil bo'lgan; 3) tikani po'stlog'ining o'zgarishidan hosil bo'lgan; 4) tamaki bilan bitta oilaiga mansub; 5) gullari shoxlar uchidagi gajak to'pgulda joylashgan; 6) tuguncha ichida urug'kurtak rivojlanadi

- A) 3, 4, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 6 D) 1, 2, 5

44. Tok shillig'iga xos xususiyatlarni belgilang.

- 1) tirik tug'adi; 2) yuragi 2 karnerali; 3) tasmaga o'xshash yagona buyragi bor; 4) o'simliklarning yashil qismi bilan oziqlanadi; 5) germafrodit; 6) ayrim jinsli; 7) qon aylanish sistemasi yopiq; 8) paypaslagichlarida ko'p so'rg'ichlar joylashgan

- A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 8 C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 4, 6, 7

45. Yomg'ir chuvalchangining baqachanoqdan farqli belgilarini aniqlang.

- 1) tanasini mantiya teri o'rab turadi; 2) tanasida nerv tugunlari mavjud; 3) tuxumidan lichinka rivojlanadi; 4) qon faqat tomirlar ichida oqadi; 5) maxsus sezgi organlari rivojlanmagan; 6) germafrodit hayvon

- A) 1, 5 B) 4, 6 C) 2, 6 D) 3, 4

46. Hayvonlarning o'xshash belgilari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Chumoli ichki urug'lanish kuzatilishi bilan rishtaga o'xshaydi.
 B) Biy qon aylanish sistemasi ochiqligi bilan nereidaga o'xshaydi.
 C) Oq planariya uchi berk ichagi mavjudligi bilan jigar qurtiga o'xshaydi.
 D) Kolorado qo'ng'izi yuragining qorin bo'limida joylashganligi bilan butli o'rgimchakka o'xshaydi.

47. Lansetnik (a) va dengiz tulkisi (b) ga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang.

- 1) ayirish sistemasi bir juft tasmasimon buyrakdan iborat; 2) eshitish organi ichki qulodan iborat; 3) nerv sistemasi tana bo'y lab ketgan nerv nayidan iborat; 4) yuragi ikki kamerali; 5) muskullari ikki yon tomonida tana bo'y lab uzun tasma shaklida joylashgan; 6) ko'krak umurtqalari, qovurg'alar va to'sh suyagi ko'krak qafasini hosil qiladi
- A) a - 3, 5; b - 1, 4 B) a - 1, 5; b - 2, 6
 C) a - 1, 2; b - 3, 4 D) a - 1, 3; b - 6

48. Quyidagi qaysi xususiyatlar dengiz mushugiga xos emas?

- 1) bo'yni kalta bo'ladi; 2) qishda oppoq, momiq yungli, ko'zi yumuq bitta bola tug'adi; 3) qulq suprasi bo'lmaydi; 4) oziq zanjirining ikkinchi zvenosiga mansub; 5) morj bilan bitta turkumga mansub; 6) kitsimonlar turkumiga mansub.
- A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 6 C) 3, 4, 6 D) 1, 2, 5

49. Latcha va qaldirg'ochning ovqat hazm qilish sistemasidagi o'xshashlik (a) va farqlarni (b) belgilang.

- 1) oshqozoni ikki bo'imali; 2) ovqat ichakda hazm bo'ladi; 3) qizilo'ngachning kengaygan qismi jig'ildonni hosil qiladi; 4) ichagi kloakaga ochiladi; 5) hazm bo'lgan ovqatdan ajralgan energiyaning ma'lum bir qismi tana haroratini doimiy saqlash uchun sarflanadi; 6) og'iz bo'shilg'ida ixtisoslashgan tishlar mavjud
- A) a-2, 5; b-4, 6 B) a-1, 3; b-2, 6 C) a-1, 5; b-2, 6
 D) a-2, 4; b-1, 5

50. Odamlarda yurak qorinchalarining sistola holatida ... bo'ladi.

- A) o'ng bo'lmacha va o'ng qorincha o'rtasidagi uch tavaqali klapan yopiq; o'ng qorincha va o'pka arteriyasi o'rtasidagi yarimoysimon klapan yopiq
 B) chap qorincha va aorta o'rtasidagi yarimoysimon klapan ochiq; o'ng qorincha va o'pka arteriyasi o'rtasidagi yarimoysimon klapan ochiq
 C) chap bo'lmacha va chap qorincha o'rtasidagi ikki tavaqali klapan ochiq; chap qorincha va aorta o'rtasidagi yarimoysimon klapan ochiq
 D) chap bo'lmacha va chap qorincha o'rtasidagi ikki tavaqali klapan ochiq; o'ng bo'lmacha va o'ng qorincha o'rtasidagi uch tavaqali klapan ochiq

51. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) II guruh qonli odamlar ... guruhga donor bo'ladi;
 b) III guruh qonli odamlar ... guruhga donor bo'ladi;
 c) II guruh qonli odamlar ... guruh uchun retsipyent bo'ladi; d) III guruh qonli odamlar ... guruh uchun retsipyent bo'ladi

- A) a - II; b - III; c - I; d - III
 B) a - IV; b - III; c - II; d - II
 C) a - I; b - IV; c - II; d - III
 D) a - II; b - II; c - I; d - III

52. Simpatik nerv sistemasiga xos xususiyatlarni aniqlang.

- 1) arteriya qon tomirlarini toraytirib, qon bosimini pasaytiradi; 2) me'da va ichaklarning ishini kuchaytiradi; 3) bronxlarini kengaytiradi, nafas olishni osonlashtiradi; 4) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 5) buyrak qon tomirini kengaytirib, siyidik ajralishini ko'paytiradi
- A) 4, 5 B) 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 2, 4, 5

53. Noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) uzunchoq miya zararlansa, yurak ishi to'xtab qoladi; 2) uchlik nervi yallig'lansa yuz, ko'z, tish sohasida og'riq seziladi; 3) oqimtir yadro zararlansa, tana muskullari tarangligi pasayadi; 4) kolbachasimon retseptorlar funksiyasining tug'ma buzilishi daltonizm hisoblanadi; 5) qalqonsimon bez funksiyasi pasaysa, tiretoksikoz yuzaga keladi; 6) somatotrop juda kam ishlab chiqarilsa, akromegaliya yuzaga keladi
- A) 1, 3, 6 B) 3, 5, 6 C) 1, 2, 5 D) 2, 4, 5

54. Jigar qurtining quyida berilgan belgilari qaysi tur mezonlarini aks ettiradi?

- a) morfologik; b) ekologik;
 1) lichinkasi suvda yashaydi; 2) tanasi yassi; 3) parazit hayot kechiradi; 4) xo'jayin organizmi to'qimalari bilan oziqlanadi; 5) og'iz va qorin so'rg'ichlariga ega; 6) hazm sistemasida og'iz teshigi mavjud.
- A) a - 2, 6; b - 1, 5 B) a - 2, 5; b - 1, 3
 C) a - 1, 5; b - 3, 6 D) a - 2, 4; b - 3, 5

55. Otsimon ohu qaysi biogeografik viloyatda tarqalgan?

- A) Paleoarktik B) Avstraliya C) Afrika
 D) Hindomalay

56. To'g'ri (a) va noto'g'ri (b) fikrlarni aniqlang.

- 1) mezozavrilar - ilon kaltakesaklar; 2) ixtiostegalar - qirilib ketgan sudralib yuruvchilar; 3) ixtiozavrlar - baliq kaltakesaklar; 4) trilobitlar - qadimgi bo'g'imoyoqlilar; 5) tiranozavrlar - o'txo'r kaltakesaklar; 6) brontozavrlar - yirtqich kaltakesaklar; 7) qalqondorlar - umurtqali hayvonlar.
- A) a - 3, 4; b - 2, 5 B) a - 1, 4; b - 3, 7
 C) a - 2, 5; b - 3, 4 D) a - 3, 5; b - 6, 7

57. Erkak va urg'ochi qush tanasining birgalikdagi og'irligi 260 g. Erkagining massasi urg'ochisiniidan 20 g ko'p.

Erkagining massasi 155 g ga yetishi uchun yana qancha (g) hasharot bilan oziqlanishi kerak?

- A) 170 B) 150 C) 80 D) 120

58. DNK fragmentida 600 ta sitozin bo'lib, u umumiyluk nukleotidlarning 30%ini tashkil qiladi. DNK fragmentidagi adeninlar sonini toping.

- A) 400 B) 600 C) 1200 D) 1250

59. Itog'iz o'simligi gulining qizil rang bo'lishi oq rang ustidan qisman dominantlik qiladi, geterozigotalar pushti rangni hosil qiladi. Barglarning ensiz bo'lishi enli bo'lishiga nisbatan chala dominantlik qiladi va geterozigota formalarning bargi o'rtacha kenglikda bo'ladi. Digeterozigota organizmlarning chatishishidan pushti gulli, ensiz bargli o'simliklar hosil bo'lishi ehtimolligini aniqlang.

- A) 12,5% B) 18,75% C) 6,25% D) 25%

60. Odamlarda jingalak soch silliq soch ustidan chala dominantlik qiladi, geterozigotalar soch to'lqinsimon bo'ladi. Sepkillilik sepkilsizlik ustidan to'liq dominantlik qiladi. Gemofiliya esa X xromosomada joylashgan retsessiv belgi hisoblanadi. Barcha genlari bo'yicha geterozigotali ayol va silliq sochli, sepkilsiz, sog'lom erkak oilasida tug'ilgan o'g'illarning necha foizi gemofiliya bo'yicha sog'lomligini aniqlang.

- A) 75 B) 56,5 C) 25 D) 50

61. Daltonidlarni ko'rsating.
 1) suv; 2) metan; 3) titan(II) oksid; 4) uran(II) oksid;
 5) vodorod xlorid
 A) 1, 2 va 5 B) 1 va 4 C) 2 va 3 D) 3 va 4
62. Tarkibida $3,01 \cdot 10^{23}$ ta kislород atomi bo'lgan N_2O_5 ning massasini (g) toping.
 A) 12,2 B) 10,8 C) 14,2 D) 11
63. Kimyoviy element atomining 5-pog'onasida 6 ta elektron bo'lsa, elementning elektron konfiguratsiyasini ko'rsating.
 A) ... $5s^25p^6$ B) ... $5s^25p^4$ C) ... $5s^24d^6$ D) ... $5s^14d^5$
64. X^n ioni Y^{+3} ioniga 2 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. " n " ning qiymatini aniqlang.
 A) -3 B) -1 C) +1 D) +3
65. Etilenglikol molekulasida qanday kimyoviy bog'lanish(lar) mavjud emas?
 1) qutbsiz kovalent bog'lanish; 2) donor-akseptor bog'lanish;
 3) metall bog'lanish; 4) ion bog'lanish; 5) vodorod bog'lanish; 6) qutbli kovalent bog'lanish
 A) 1, 4 B) 2, 3, 4 C) faqat 6 D) 1, 5, 6
66. Tarkibida sp^3 -gibriddlangan orbitallar soni 8 ta bo'lgan molekula(lar)ni tanlang.
 1) izobutilen; 2) izopren; 3) xlorat kislota; 4) chumoli kislota;
 5) metilakrilat; 6) malon kislota.
 A) 3, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 6 D) 2, 4
67. 10 litrli idish 6 mol A gazi bilan to'ldirildi. 80 sekunddan keyin idishda 2 mol A gazi qolgan bo'lsa, reaksiyaning o'rtacha tezligini ($\text{mol}/(\text{l}\cdot\text{s})$) aniqlang.
 A) 0,2 B) 0,02 C) 0,05 D) 0,005
68. Titri 20 mg/ml bo'lgan kalsiy bromid eritmasidagi brom ionlarining molyar konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang. ($\alpha=100\%$)
 A) 0,2 B) 0,4 C) 0,8 D) 0,1
69. 80 gramm SO_3 ga suv qo'shilganda olingan oleum tarkibidagi vodorod atomlari sonining oltingugurt atomlari soniga nisbati 3:2 bo'lsa, oleumdagи kislota massasini (g) aniqlang.
 A) 49 B) 29,4 C) 73,5 D) 24,5
70. Ma'lum hajmdagi suvda kaliy oksid eritildi.
 Ushbu jarayon uchun quyidagilardan qaysilari noto'g'ri?
 1) pH kamayadi; 2) H^+ ionlari ortadi; 3) pH ortadi; 4) OH^- ionlari ortadi.
 A) 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 1, 2
71. 0,1 mol alyuminiy nitrat ionlarga dissotsilanganda hosil bo'lgan eritmadiagi jami ionlar sonini (N_A) aniqlang.
 (suvning dissotsilanishimi hisobga olmang, $\alpha=100\%$)
 A) $2,4 \cdot 10^{23}$ B) $1,2 \cdot 10^{23}$ C) $6 \cdot 10^{23}$ D) $24 \cdot 10^{23}$
72. Kislород qaysi modda bilan reaksiyaga kirishganda qaytaruvchi bo'ladi?
 A) N_2 B) Cl_2 C) F_2 D) Si
73. $H_2S + H_2SO_4 + K_2Cr_2O_7 \rightarrow Cr_2(SO_4)_3 + S + \dots + H_2O$ reaksiya tenglamasida chap tomondagи koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.
 A) 8 B) 5 C) 13 D) 17
74. Natriy nitrat eritmasidan 6 F tok o'tkazilganda, katodda necha gramm modda ajraladi?
 A) 46 B) 6 C) 2 D) 138
75. 500 ml 2M li natriy xlorid eritmasi 2 F tok bilan elektroliz qilindi. Anoddа ajralgan gazlar necha mol mis bilan reaksiyaga kirishadi?
 A) 0,5 B) 0,25 C) 0,75 D) 1
76. Ikkita asosli va bitta kislotali oksid keltirilgan qatorni aniqlang.
 A) CaO, MnO, N_2O B) Cu_2O, CrO, SeO_3
 C) Na_2O, PbO, P_2O_5 D) BaO, FeO, NO
77. Temir suyultirilgan sulfat kislotada eritilganda qanday gaz ajraladi?
 A) SO_2 B) gaz ajralmaydi C) SO_3 D) H_2
78. 200 g 7,4% li kalsiy gidroksid eritmasiga qanday hajmdagi (l, n.sh.) karbonat angidrid yutтирилгандага 10 g cho'kma tushib, gidrokarbonat ioni saqlagan eritma hosil bo'ladi?
 A) 4,48 B) 6,72 C) 2,24 D) 8,96
79. Tarkibida 1 mol kislород atomlari saqlovchi ortofosfat kislota massasini (g) aniqlang.
 A) 49 B) 24,5 C) 19,6 D) 9,8
80. II valentli metall nitrati qizdirilganda uning massasi 21/9 marta kamaydi. Metallni aniqlang.
 A) Mn B) Cd C) Zn D) Mg
81. Quyidagi moddalardan qaysi biri organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasiga zid keladi?
 A) $C_7H_{15}CHO$ B) $C_5H_{10}Cl_2$ C) $C_8H_{17}Cl_2$
 D) $C_5H_{11}COOH$
82. 2-metilbutanning dixlorli izomerlariga Mg metali ta'sir ettirib jami necha xil sikloalkan olish mumkin?
 A) 4 B) 5 C) 3 D) 2
83. Nitrobenzol va pikrin kislota molekulalari tarkibidagi kislород atomlari sonlari nisbatini toping.
 A) 5:3 B) 3:2 C) 2:7 D) 5:2
84. Etan, propen va divinildan iborat 3,9 g aralashma (aralashmaning o'rtacha molyar massasi 39 g/mol) yonganda hosil bo'ladigan CO_2 ning massasini (g) aniqlang.
 A) 8,8 B) 13,6 C) 12,1 D) 17,6
85. Etanolga qaysi modda ta'sir ettirilganda murakkab efir hosil bo'ladi?
 A) xlorid kislota va propanol
 B) faqat organik kislotalar
 C) sulfat kislota va metanol
 D) mineral va organik kislotalar
86. Etilenxorgidrin olish uchun dastlabki spirtdan 2 mol olingan bo'lsa, hosil bo'lgan etilenxorgidrin massasini (g) aniqlang. ($\eta=100\%$)
 A) 322 B) 198 C) 80,5 D) 161
87. Ikki xil to'yingan bir atomli spirlar aralashmasi molekulalararo degidratlanganda 18 g oddiy efir va 5,4 g suv hosil bo'ldi. Spirtlarni aniqlang.
 A) etanol va propanol B) metanol va etanol
 C) metanol va propanol D) etanol va butanol
88. Sxemaga asoslanib A moddani aniqlang.

$$\begin{array}{c} CH_4 \xrightarrow{\text{piroliz}} X_1 \xrightarrow{+HOH} X_2 \xrightarrow{[O]} X_3 \xrightarrow{Cl_2} X_4 \xrightarrow{NH_3} A \\ \downarrow \quad \downarrow \quad \downarrow \quad \downarrow \\ \text{CH}_3(\text{CH}_2)_3\text{COONa} \xrightarrow{+\text{NaOH}, t} X_1 \xrightarrow[-3H_2S]{+4S, 560-700^\circ C} X_2. \end{array}$$

 A) 2-amino-2-xlorsirka kislota B) xlorsirka kislota
 C) sirka kislota D) aminosirka kislota
89. Quyidagi o'zgarishlarda hosil bo'ladigan X_2 moddani aniqlang:

$$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3\text{COONa} \xrightarrow{+\text{NaOH}, t} X_1 \xrightarrow[-3H_2S]{+4S, 560-700^\circ C} X_2.$$

 A) tiazol B) tiopiran C) butan D) tiofen
90. Molekulyar massasi 10000 (m.a.b) ga teng bo'lgan politetraftoretilenning polimerlanish darajasini aniqlang.
 A) 100 B) 1000 C) 300 D) 500